

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI

O'zbek adabiyoti kafedrası

O'zbek filologiyasi yo'nalishi 3-bosqich "B" guruh
talabasi

Azizova Feruza tayyorlagan

РЕФЕРАТИ

Mavzu: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida
2010-yilda chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalar
(bibliografik ko'rsatkich va obzor)

O'qituvchi: M.Sheraliyeva

Andijon-2014

“O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasida 2010-yilda chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalar (bibliografik ko‘rsatkich va obzor)

Reja:

1. Kirish. “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasida 2010-yilda chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalarga umumiy tavsif.
2. “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasida 2010-yilda chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalarning bibliografik ko‘rsatkichi.

Kirish

Adabiyot har bir inson qalbidan yuksak joy olgan. U insonlar hayotida alohida ahamiyatga ega. Adabiyotda adabiy-tanqid degan keng tushuncha mavjuddir. Adabiy-tanqid azaldan o'zbek adabiyotshunosligida o'zining yuksak maqomi va o'rniga ega. Adabiy - tanqid harakatdagi adabiy jarayonlarni tekshiradi, ijodkorlar tomonidan yaratilayotgan yangi – yangi asarlar tahlili va talqini bilan shug'ullanadi.

Adabiy-tanqidning muhim vazifalaridan biri adabiyot olamiga ilk qadamlarini qo'yayotgan ijodkorlar ijodini shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi. Adabiy-tanqid ijodkorlarning to'g'ri yo'l tanlab olishlariga, yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini tushunib, ularni bartaraf etishlariga keng imkon yaratadi. Adabiy-tanqid xususida ko'plab maqolalar ham chop etib kelinadi. Jumladan, O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasida ham “ Adabiyotshunoslik va tanqid ” rukni ostida adabiy -tanqidga oid ko'plab maqolalar uzluksiz chop etib kelinadi, chunki bunday maqolalar hozirgi kunda talab darajasidadir. Ushbu gazetaning 2010 - yilda chop etilgan sonlarida ham adabiy - tanqidchilikka oid maqolalar ko'lami keng. Ular mavzular ko'laminin g kengligi, muammoli masalalarni mohirona yechimlarining berilishi bilan ahamiyatlidir.

Ushbu yilda tarjimashunoslikka, matnshunoslikka, adabiyotshunoslikka oid ko'plab ma'lumotlar yoritilgan, yangi yaratilgan asarlar haqida tanqidchilarimiz qarashlari berilgan. Bundan tashqari maqolalar ichida shundaylari ham borki, ularda ustoz ijodkorlarga bag'ishlangan qutlovlar, minnatdorchiliklar berilgan. Jumladan, Begali Qosimov, Suyima G'aniyeva, Vahob Rahmonov kabi ustoz ijodkorlarga bag'ishlab yozilgan. Ularning o'z sohasida erishgan yutuqlari, muvaffaqiyatlari va yuksak malakaga ega ekanliklari tilga olinadi.

Ushbu yilda samarali ijod qilgan Umarali Normatov, Ibrohim G'afurov, Abdusattor Jumanazar, Abduzohur Abduazizov, Nusratulla Jumaxo'ja, Ulug'bek Hamdam kabi ijodkorlarimizning ko'plab yorqin maqolalari gazetxonlar e'tiboriga havola etilgan. Jumladan, muammoli masalalar ochib berilgan Abdusattor Jumanazar tomonidan havola etilgan “Mabdai nur va kalavaning ikki uchi ” nomli maqolada “ Mabdai nur ” asarining kimga tegishli ekanligi haqida qarashlar berilgan. Uni Boborahim Mashrabnikimi yoki Ro'ziboy Mashrabnikimi degan savol yuzasidan baxs-munozaralar yoritilgan. Bu mavzu bo'yicha turli xil qarashlar mavjud, ba'zi tadqiqotchilar “ Mabdai nur ” asarini Boborahim Mashrabniki deyishsa, boshqalari uni Ro'ziboy Mashrabniki deb ta'kidlaydilar. Lekin ming afsuski bu muammo haligacha yechilmagan mavzular qatoriga kirib kelmoqda.

Qosimjon Sodiqov, Boqijon To'xliyev va Quدراتulla Omonovlarning maqolalari orqali esa o'lmas meros hisoblanmish “ Qutadg'u bilig ” haqidagi ko'plab yangi ma'lumotlar berilgan. Jumladan, Boqijon To'xliyevning “ Ma'rifatga chorlovchi kitob ” nomli maqolasida asardagi

mavzular, muallifning asar yaratishidan maqsadi, undagi g'oyalar, asar qo'lyozmalari haqida ma'lumotlar keltirib o'tadi.

Maqolasining ahamiyatli ekanligi bilan ajralib turuvchi ijodkorlardan biri Abdusattor Jumanazardir. Uning “ Bulbul tilsimi ” nomli maqolasida Boborahim Mashrabning ustozlari bo'lgan Mulla Bozor Ohund haqidagi eng so'nggi aniq ma'lumotlar yoritilgan. Uning hayot yo'li haqida biz bilgan va bilmagan ma'lumotlar beriladi. Eng qizig'i esa birgina “ bulbul ” so'zining noto'g'ri talqini tufayli Mulla Bozor Ohundning vafot etgan yili xato berilgan. Buni mashrabshunos olimlar aniqlashtirib, to'g'rilashga muvaffaq bo'ldilar. Bu ma'lumot orqali bizning aniq ma'lumotlar bazamizda yana bir aniq ma'lumot o'rin oldi.

Otabek Jo'raboyevning “ Shoir bo'lib shuhrat topganlar ” nomli maqolasida Uvaysiy, Muqimiy, Xaziniy va Charxiylarning ijodiy faoliyatlari haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Ularning she'riyati, bir – biri bilan bo'lgan munosabatlari, ularni boog'lab turuvchi ko'plab jihatlar haqida, Xaziniy va Muqimiy o'rtasidagi do'stlik rishtasi, birgalikda she'rxonlik qilganlari haqida so'z yuritadi va bu ma'lumotlarga ega bo'lmaganlarga yangi axborot sifatida havola etilgan.

Nusratulla Jumaxo'janing “ Ilm aniqlikka tayanadi ” nomli maqolasida hozirgi kunda ko'plab jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yayotgan ijodkorlarni haqida so'z boradi. Jumladan, Ibrohim Haqqul haqida so'z boradi. Uning “ Maoniy bog'ini dono qilur sayr ” nomli maqolasiga nisbatan tanqidiy fikrlar bildirgan. U bergan ma'lumotlarning bir-biriga to'g'ri kelmasligini aytib o'tadi. Maqola so'ngida esa bunday ijodkorlarga nisbatan tanqidiy qarashlari aks ettirilgan.

Bundan tashqari adabiyot sohasidagi maqolalarga ham alohida o'rin berilgan. Jumladan, Ahror Ahmedov muallifligi ostida chop etilgan “ Adabiyot – ma'naviyatimiz ko'zgusi ” nomli maqolasida ham bu xususida so'z yuritilgan. Maqolada mamlakatimizda adabiyotga qaratilayotgan e'tibor, chop etilayotgan yangi asarlar, ularning ko'lamining kamligi, ijodkorlar asarlarining talabga javob bera olmayotgani kabi masalalar yoritilgan. Shu bilan birgalikda maqolada Prezidentimiz I.A.Karimovning nashriyotlar va nashr masalasi yuzasidan bildirgan fikrlari berilgan. Noshirlik, matbaachilikda hozirgi kunda yo'l qo'yilayotgan xatolar, ular tarkibidagi nuqsonlar son-sanoqsiz bo'lib borayotgani asarlarga talabni kamaytirmoqda. Chunki ular tarkibidagi ba'zi jumlar ma'nisiz bo'lib qolgan. Bugungi kun ruhini, shiddatini, shavqini ochib beradigan, hammaga birdek ma'qul bo'ladigan asarlar hozirgi kun insonlari uchun zarurdir.

Bunday mavzular yuzasidan ba'zi bir maqolalar tarkibida Ulug'bek Hamdam va N. Rahimjonovlarning adabiyotshunoslik ilmi haqidagi qarashlari uni rivojiga sabab bo'luvchi omillar, adabiyotshunoslikda milliylik va badiiylik bosh mezon hisoblanishi, asar yaratishdan oldin yozuvchida o'z “men”i shakllangan bo'lishligi, badiiy asar poydevorining mustahkamligi milliylik va badiiylikning uyg'unlashuvida ekanligi haqida ko'plab fikrlari berilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, adabiyotshunoslik, adabiy-tanqid kabi sohalar hayotimizda ahamiyatlidir. Uni bilmagan ijodkor ijodkor emas. Zero, adabiyot yashasa, millat ham barhayotdir. Millatning borligi esa adabiyotshunoslik va adabiy-tanqidning rivojlanishi va barhayotligi demakdir.

**O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasidagi
adabiy - tanqidiy maqolalar
(2010-yil)**

1. Abdumajid Madraimov. "Ibratlar xazinasi ". O'zAS 8 – yanvar. № 2.

Husayn Voiz Koshifiyning " Ahloqi Muxsiniy "asari haqida. Asardagi mavzular ko'lam. Muallifning maqsadlari haqidagi fikrlar. Asarda yoritilgan axloq va odob qoidalari. Asarning hozirgi kundagi ahamiyati. Asardagi tarbiyaga oid qarashlar.

2. Muhammadjon Xolbekov. " Tarjima asri davom etadi". O'zAS 8-yanvar.№2.

O'zbek tarjimashunosligi haqida. Tarjimashunoslikdagi yutuqlar. O'tgan asr tarjimashunosligi. Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zMU)dagi Tarjima nazariyasi kafedrasini faoliyati. Hozirgi kundagi tarjimachiliklar ko'lam va uning rivojlanishi.

3. Abdurahim Mannonov,Qosimjon Sodiqov. "Sharqshunosligimiz kelajagi". O'zAS 15-yanvar. № 3.

Sharqshunoslik xususida. Sharqshunoslikdagi kamchiliklar. Sharqshunoslikni rivojlantirish haqida. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi mumtoz (klassik) filologiyasining faoliyati. Eski turkiy, arab va fors tilining o'rganilishidagi tadqiqotlar.

4. Shuhrat Rizayev. " Murosali umr hikoyati ". O'zAS 15- yanvar. № 3.

Shuhrat Rizayevning Erkin A'zamning " Stupka " hikoyasiga yozgan tahlili. Hikoya epizodlari. Qahramonlar taqdiri. Obraz yaratishdagi an'anaviylik va o'zgachalik. Hikoyadagi ko'zga tashlanuvchi kamchiliklar va ma'no ko'lamining kengligi.

5. Gulchehra Umarova " "Iliada"ga ilhom bergan " Dekameron" ". O'zAS 27- yanvar № 4.

Tarjimon Qodir Muhamedov bilan suhbat. Qodir Muhamedov hayot yo'li, ijodiy faoliyati. Tarjima asarlari. Ijodidagi yutuqlar. Bugungi kun tarjimoni qanday bo'lishi haqidagi fikr - mulohazalar. Tarjimonlar yo'l qo'yayotgan xato va kamchiliklar.

6. Ulug'bek Dolimov. “ Badiiy tarixiy nasr namunasi ”. O'zAS 27-yanvar № 4.

Muhammad Rizo Ogahiy ijodi haqida . Tarihiy asarlari haqida fikrlar. “ Zubdatu-t-tavorix ” asari xususida. “ Zubdatu-t-tavorix ” asarining akadem nashrining yutuqlari. Nuriboy Jabborovning “ Zubdatu-t-tavorix ”asari yuzasidan olib borgan tadqiqotlari. Asarning ahamiyatli jihati.

7. Suyima G'aniyeva. “ Mavlono Lutfiy Navoiy nigohida”. O'zAS 29 –yanvar № 5.

Mavlono Lutfiy haqidagi qarashlar. Navoiyning Lutfiyga bergan bahosi. Navoiy asarlarida Lutfiy hayoti va ijodining yoritilishi. Lutfiy va Navoiy o'rtasidagi munosabatlar xususida fikrlar.

8. Nosir Muhammad. “ Navoiyning dunyoviy shuhrati ”. O'zAS 29-yanvar № 5.

Alisher Navoiy haqida. Navoiy ijodiga bo'lgan qiziqishlar. Navoiy asarlarining ko'p kitobxonlar ko'ngliga yo'l topa olganligi. Navoiyshunoslarning Navoiy haqidagi mulohazalari. Naim Karimovning u haqidagi fikrlari.

9. Naim Karimov. “ Fitratning singlisi ”. O'zAS 29-yanvar № 5.

Mahbuba Rahim qizining hayot yo'li haqida. Uning shoiralikdagi yutuqlari. Fitratning singlisi ekanligi. Fitrat bilan bo'lgan munosabati haqidagi ma'lumotlar. Shoiraning Maqsud Shayxzoda bilan bo'lgan aloqasi. Mahbuba Rahim qizining ijodidan namuna keltirilgan.

10. Hasan Qudratullayev. “ Bobur buyukligining qirralari ”. O'zAS 12-fevral №7.

Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo'li, ijodiy faoliyati haqida fikr yuritilgan maqola. Boburning davlat boshqaruvidagi yutuqlari. Farzandlariga saltanat boshqaruvi haqida aytgan pand – nasihatlar. Ayol shaxsiyatiga yuksak e'tibor berganligi. “ Boburnoma ”ni ko'chirgan kotibning asar so'nggida Boburga bergan ta'rif. Unga shuhrat olib kelgan asarlari.

11. Raxshona Kenjaboyeva. “ Harflar zahirida tarix sirlari ”. O'zAS 12- fevral № 7.

Zahiriddin Muhammad Boburning ta'rix san'atidan foydalanishdagi mahorati. Abjad hisobi haqida ma'lumotlar berilgan.“Boburnoma”da abjad hisobida ifodalangan ba'zi tarixiy voqealar. Ulardan namunalar. Ta'rix san'atidan foydalanishning ahamiyati.

12. Sharafiddin Sharipov. “ Alisher Navoiyning shuhrati ”. O'zAS 12 – fevral № 7.

Navoiy siymosi haqidagi qarashlar. Navoiy ijodini Turkiyada o'rganilishi. “ Gul va Alisher ” dostonining yaratilishi. Dostondagi qahramonlar hayoti. Alisher obrazi haqida. Dostondagi Alisher bilan Guli obrazlari orasidagi munosabatlar. Asar voqealarining izchilligi.

13. Ibrohim G'afurov. "Tarjimada aniqlik kerakmasmi ?". O'zAS 19-fevral №8.

Ushbu maqolada tarjima va tarjimachilik haqidagi qarashlar berilgan. Tadqiqotchilarning tarjimachilik haqidagi fikrlaridan namunalar, tarjimada aniqlik kerak yoki kerakmasligi haqida yuritilgan baxs-munozaralar haqida, tarjimashunoslar yo'l qo'yayotgan xato va kamchiliklari, ularni bartaraf etishning yo'llari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

14. Komiljon Jo'rayev. "Ma'no va mantiq birlamchi ". O'zAS 19-fevral № 8.

Ulug'bek Hamdamning "Isyon va itoat" romanining rus tiliga tarjimasi haqida. Roman matnidagi xatolar. Tarjimada ko'zga tashlanadigan nuqsonlar. Tarjima qilinayotgan matnlardagi ma'no va mantiqning birlamchiligi. Tarjimashunoslarga qo'yiladigan talablar.

15. Azimboy Boboniyozov, Tirkashboy Boyjonov. "Ishq mulkining sultoni ". O'zAS 26-fevral № 9.

Mullanas Maxtumlul Firoqiyning hayot yo'li va ijodiy faoliyati haqida. Uning "Zuhra va Tohir" dostoni. Dostondagi Navoiy uslubi bilan o'xshash voqealar. Mullanasning she'riyatdagi o'rni. Mullanas she'rlarida pand - nasihat ruhining balandligi. Ishq-muhabbat mavzusidan mohirona foydalanganligi. She'riyatidan namunalar.

16. Omon Muxtor. " "Daxo yasash" tajribasi ". O'zAS 26-fevral № 9.

Kitob xususidagi qarashlar. Kitob va non orasidagi o'xshashliklar. Ijodkorlar, ustoz va shogird an'anasi haqida qarashlar yoritilgan. "Qadr" kitobidagi ijodkorlar faoliyatining yoritilishi. Kitob tuzish madaniyati haqida.

17. Otauli. "Zargarona zarofat, teran tagma'no ". O'zAS 5-mart № 10.

So'z ko'rki haqida. Maqol va fardning farqi. Yozma she'riyatda so'zdan foydalanish mahorati. O'zbek she'riyatining go'zalligi. G'azal va badia janrining o'ziga xosliklari. Dostonlarda so'zning yuksak maqomga ko'tarilishi.

18. Sayyora Rahmonova. "Izlanishlar tabiiy jarayon ". O'zAS 5-mart № 10.

Sharq va G'arb adabiyotida janrlarning o'zaro mushtarak jihatlari. G'azal va sonet orasidagi o'xshashliklar va ularning farqli jihatlari. Shoir va tarjimonlarning ulrga bergan nisbatlari. Shekspir sonetlarining ta'sirchanligi. O'zbek she'riyatida dastlabki sonet janridan foydalangan ijodkorlar haqida. Sonet janridan foydalanish mahorati haqida so'z yuritiladi.

19. Sohiba Umarova. "Ustoz ibрати ". O'zAS 5-mart № 10.

Suyima G'aniyeva faoliyati. Uning o'zbek adabiyotiga qo'shgan xissalari. Suyima G'aniyevaning " Husayn Boyqaro. Devon. Risola " kitobini nashga tayyorlashi. Devon so'zboshisida Husayn Boyqaroga berilgan ta'rif. Suyima G'aniyevaning o'zbek manbashunosligi va matnshunosligidagi o'rni. Uning Gadoiy ijodini tadqiq etishdagi erishgan yutuqlari. Shogirdlari uchun ibrat bo'la oluvchi ustoz hisoblanishi.

20. Ahmad Otaboyev. " Sohir so'z san'atkori ". O'zAS 12-mart № 11.

Mullanasav tavalludining 200 yilligiga bag'ishlangan maqola. Mullanasav ijodiga oid tadqiqotlarning ko'lemi. Tadqiqotchilar tomonidan uning ijodini tadqiq etilishi. Uning ijodiga oid " Muhabbat fasli " nomli to'plamning nashr ettirilishi. To'plamdagi she'rlaridan namunalar berilgan. Ijodkorning aruz vaznidan mohirona foydalanganligi, ijodiy faoliyati haqidagi qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

21. Rahimjon Rahmat. " Shoirligidan iymonaman ". O'zAS 12-mart № 11.

She'r yozish masalasi, shoirlilik iste'dodining inson hayotidagi o'rni, shoirlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi. Mirtemirning shoirlilik iste'dodi. She'rning insonning ruhiy dardiga malham ekanligi. Shoirlarda kelajakni bashorat qila olish uquvining mavjudligi. She'rlarda madh etiladigan mavzular ko'lemi haqida.

24. Sirojiddin Sayyid. " Vatanni o'rganish " Ustoz Shukur Xolmirzayev saboqlari. O'zAS 19-mart № 12.

Sirojiddin Sayyidning talabalik yillaridan lavhalar. Shukur Xolmirzayev bilan tanishuvi. Ular o'rtasidagi ustoz-shogird munosabati haqida. Undan olgan o'gitlari. Shukur Xolmirzayevning hikoya yaratishdagi mahorati. " Tanxolik " hikoyasining o'ziga xosligi. " Xorazm , jonginam " hikoyasida yoritilgan mavzular ko'lamining kengligi.

25. Iqboloy Adizova. " Noyob san'at jilosi ". O'zAS 19- mart № 12.

Sharq mumtoz adabiyotida so'zga ilohiy ne'mat sifatida qaralishi to'g'risida. Ogahiy — durlar zamirida daryolar kashf etuvchi ijodkor. Ogahiyning adabiy janrlardan foydalanishdagi mahorati. Murabba san'ati va uning nomlanishi haqidagi qarashlar. Murabba' so'zi " Funun ul – balog'a "da " al murabba' ", " Badoyi us – sanoyi "da " murabba' ", " San'ati suxan "da " san'ati chorxon " deb nomlangan. Ogahiyning ushbu san'atdan keng foydalanishi va yutuqlari.

26. Mamatqul Jo'rayev. " Epik tafakkur mahsuli ". O'zAS 26-mart № 13.

Maqola Mullanasav Qodirberdi o'g'li tavalludining 200 yilligiga bag'ishlangan. " Zuxra - Tohir "dostoni shoirning yuksak badiiy mahoratini namoyon etishi . " Zuhra – Tohir " dostoni

turkiy xalqlar eposining ishqiy – sarguzasht tipiga mansubligi. Dostondagi qahramonlar hayotining berilishi. Dostondagi mavzuning uning boshqa variantlari bilan mushtarakligi. Mifologik qarashlarning aks ettirilishi. Bu orqali ijodiy individuallikni namoyon etilishi. Hizr obrazini kiritishdan ko'zlangan maqsad. Dostonni o'zbek baxshilari tomonidan kuylanishi orqali ikki qardosh xalqlar o'rtasidagi ko'p asrlik adabiy aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qilganligini ko'rsatadi.

27. Abduhamid Xolmurodov. “ Ezgu niyat ijobati ”. O'zAS 26-mart № 13.

Prezidentimizning qaroriga muvofiq yozuvchilar uyushmasi qoshida “ Ijod ” fondini tashkil etilganligi yoritilgan. Qarorda yosh ijodkorlar, ularning ijodini yuzaga chiqarish to'g'risida fikrlar sanab o'tilgan va alohida ta'kidlangan. Shuningdek, keksa ijodkorlarni moddiy- ma'naviy qo'llab-quvvatlash, shoir-u adiblar uchun barcha ijodiy dam olish sharoitlarini yaratish kerakligi haqida fikrlar aytib o'tilganligi haqida so'z boradi.

28. Ahror Ahmedov. “ Adabiyot – ma'naviyatimiz ko'zgusi ”. O'zAS 2-aprel № 14.

Mamlakatimizda adabiyotga qaratilayotgan e'tibor. Chop etilayotgan yangi asarlar xususida. Asarlar ko'lamining kamligi. Ijodkorlarning yangi asarlarini talabga javob bera olmayotganligi, noshirlik, matbaachilikda hozirgi kunda yo'l qo'yilayotgan xatolar, ulardagi nuqson va kamchiliklarning juda ko'pligi aytilgan. Prezidentimizning nashriyotlar va nashr masalasiga bildirgan fikr-mulohazalari keltirilgan. Bugungi kun ruhini, shiddatini, shavqini beradigan, hammaga birdek ma'qul bo'ladigan asarlar hozirgi kitobxonlar uchun zarurligi yoritilgan.

29. Damir To'rayev. “ Daxlsiz dunyo talqinlari ”. O'zAS 2-aprel № 14.

Umarali Normatovning “ Ijodkorning daxlsiz dunyosi ” nomli adabiy suhbatlar kitobi tahlili haqidagi maqola. Kitobda taniqli o'zbek adiblari va shoirlari bilan bo'lgan suhbatlar keltirilgan. Hamidulla Boltaboyev, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev, Said Ahmadlar bilan suhbatlaridagi muhokama qilingan mavzular. “ Ijodkorning daxlsiz dunyosi ” kitobining milliy adbiyot va mustaqillik davri adabiy jarayonining o'ziga xos xususiyatlari haqida to'liq tasavvur berishi bilan muhim ahamiyat kasb etishi.

30. Ergash Umarov. “ Bu log' – bu joy ”. O'zAS 2-aprel № 14.

Mumtoz o'zbek tilida joy ma'nosida ishlatiladigan so'zlar haqida. “ Log' ” so'zining ma'nolari. Ushbu so'zdan Fazlullohxon Barlos, Alisher Navoiylarni mohirona foydalanganligi.

“ Bu “ va “ log’ ” so’zlarini xato nashri, ya’ni qo’shib yozilishi tufayli tarjimada nuqsonlarning kelib chiqishi.

31. Abdulla Ulug’ov. “ Yurak yog’dusiga yo’g’rilgan ”. O’zAS 2-aprel № 14.

Abdulla Qutbiddinning samarali ijodiy faoliyati xususida so’z yuritiladi. Uning she’rlarini an’anviy she’rlardan farq qilishi. She’rlarining shakl va mazmun jihatdan o’ziga xosligi. Shoirning xalq tilida mavjud, kundalik muomalada faol ishlatiladigan, lekin adabiy tilda kam qo’llanib kelinayotgan so’z va iboralardan mohirlik bilan foydalanishdagi mahorati. “ Uzoqdan olisga ”, “ Nayson ”, “ Baxtli yil ” kabi to’plamlari haqida qarashlar. Ularni boshqa hikoyanavis ijodkorlarning hikoyalaridan birmuncha farq qilishi.

32. Halim Saidov. “ Istiqlol qadri ”. O’zAS 9-aprel № 15.

Ushbu maqola Boybo’ta Do’stqorayevning “ O’zbekiston jurnalistikasi tarixi ” kitobi xususida. Darslikning o’ziga xos jihatlari. O’zbekiston jurnalistikasi tarixini tasniflashda bosh mezon sifatida mustaqillik xodisasi olingan. Mustabid tuzum davridagi ommaviy axborot vositalariga bo’lgan munosabat. Darslikda ko’zga tashlanuvchi ayrim xatolar. Darslikning jurnalistlar uchun asosiy manbaa hisoblanishi va ahamiyati.

33. Jalil Hazratqulov. “ O’lmas tarixiy obida ”. O’zAS 16-aprel № 16.

Abdurazzoq Samarqandiyning “ Matlai Sa’dayn va majmai bahrayn ” asari haqida. Asarda temuriylar sulolasi vakillarining hayotini yoritilishi. Asarda davlatni boshqarishda moliyaviy ishlarining o’ta muhimligi, uni doimo nazorat qilib turish zarurligi va temuriy malikalarning davlat ahamiyatiga molik qilgan ishlari haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan. Asomiddin O’rinboyevning asar haqidagi fikrlari va uni tadqiq qilishi.

34. Nusratullo Jumaxo’ja . “ Ilm aniqlikka tayanadi ”. O’zAS 16-aprel № 16.

Ushbu maqola Ibrohim Haqqulovning “ Maoniy bog’ini dono qilur sayr ” deb nomlangan maqolasiga tanqid sifatida yozilgan. Maqoladagi yo’l qo’yilgan xatolar va kamchiliklar haqida. Ma’lumotlarning bir – biriga to’g’ri kelmasligi. Aniq ma’lumotlarning kamligi. Ilmning aniqlikka tayanishi shartligi. Bular haqida muallifning fikrlari.

35. Nizomiddin Mahmudov. “ Badiiy so’z mas’uliyati ”. O’zAS 16-aprel № 16.

Tilning erkin va muntazam istiqomat makoni badiiy adabiyotdir. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho’lponlar ijodida badiiy so’zdan foydalanish mahorati. Badiiy so’zning o’ziga xos xususiyatlari va ta’sir kuchining yuqoriligi. Badiiy so’zning

zalvorli va muntazam mas'uliyatini adiblar qatorida til va adabiyot ilmi vakillari ham doim yodda tutishlari kerk ekanligi yoritilgan.

36. Saida Qurbonova. “ Muallif nuqtai nazari tahlilda ko'rinadi ”. Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad bilan suhbat. O'zAS 23-aprel № 17.

Xurshid Do'stmuhammad bilan bo'lgan suhbat yoritilgan. Bugungi o'zbek publisistikasi haqida uning qarashlari. Badiiy publisistikaning birinchi shartlaridan biri muallif nuqtai nazari ekanligi. Xurshid Do'stmuhammadning “ Qazo bo'lgan namoz ”, “ Sof o'zbekcha qotillik ” hikoyalarining yaratilishi haqida so'z. G'arb matbuotining o'ziga xosligi. Xurshid Do'stmuhammadning ba'zi maqolalar haqidagi fikrlari berilgan.

37. Vahob Rahmonov. “ Nuktadonlik san'ati ”. O'zAS 30-aprel № 18.

Ushbu maqolada nuktadonlik san'ati haqida ma'lumotlar berilgan. Nuktadonlik san'atining she'riyatda tutgan o'rni va ahamiyati. Atoiyning ushbu san'atdan mohirona foydalanishi. Uning g'azaliyotida yangi fikr kashfiyoti – nuktaning tutgan o'rni.

38. Abduzuhur Abduazizov. “ Jonatan Svift jahon kezadi ”. O'zAS 30-aprel № 18.

Germaniyaning Myunster shaxridagi Vestfal – Vilgelm universitetida “ Til, adabiyot va madaniyatlararo aloqalar ” mavzusidagi ilmiy simpozium bo'lib o'tganligi va unda o'zbekistonlik bir guruh olim va o'qituvchilar qatnashganligi haqida ma'lumot berilgan. Universitetda Jonatan Svift ijodini o'rganuvchi markaz mavjudligi. Markaz fondida uning bir qator mashxur asarlari mavjud. “ Gulliverning sayohatlari ” asarining nemis, fransuz, italyan, ispan, portugal, xitoy, yapon, gruzin tillaridagi tarjimalari saqlanishligi va ular qatoriga o'zbekcha tarjimasini qo'shishga muvaffaq bo'lganligi to'g'risida ma'lumotlar taqdim etilgan.

39. Sodiq Jonuzoq. “ Rangin lahzalarga to'lmoqda hayot ”. O'zAS 7-may № 19.

Shavkat Rahmon ijodi. Shoirning “ Avj ” nomli she'ri uning qismatini bashorat qilganligi. She'riyatidagi mavzular ko'laminig kengligi. Uning “ Saylanma ”si haqida. Uning she'riyati bahor osmoniga o'xshatilishi. She'rlarida tabiat manzaralarining ta'rif-u tavsiflarining aks etishi.

40. Olim Oltinbek. “ Millatparvar muallim ”. O'zAS 7-may № 19.

Begali Qosimovning faoliyati xususida soʻz yuritiladi. Uning jadidchilik haqidagi baʼzi fikrlari. Yangi avlod tarbiyasi – Bahodir Qosimovning oʻz oldiga qoʻygan ulugʻ vazifalaridan biri ekanligi. Uning “ Avlod tarbiyasi – millat tarbiyasi ” nomli maqolasidagi fikrlari haqida.

41. Ibrohim Gʻafurov. “ Adir olmasi ”. OʻzAS 14-may № 20.

Sheʼr va hayotning oʻzaro munosabatlari va aloqalari. Sheʼrning inson va jami insoniyatning metaforik xotirasi ekanligi. Fargʻonadagi chimyon adirlaridan olgan taassurotlari. Xuvaydoga munosib izdoshlarning mavjudligi va ularning ijodiy faoliyati. Xuvaydo bir “adir” boʻlsa, uning izdoshlari adirdagi “olmalar”ga oʻxshatilishi koʻrsatib oʻtilgan.

42. Nasimxon Rahmonov. “ Samimiy va taʼsirchan talqinlar ”. OʻzAS 14-may № 20.

Abdusaid Koʻchimovning “ El suv ichgan daryolar ” kitobi talqini. Unda yoritilgan mavzular rang-barangligi. Muallifning har bir qahramonning boshqalarda takrorlanmaydigan qirralarini ochishdagi mahorati. Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Pirmat Shermuhamedov, Mahmud Saʼdiylarga bergan nisbatlari haqida. Kitobda koʻzga tashlanuvchi ayrim kamchiliklar.

43. Akmal Saidov. “ Buyuk ishda tadrijiylik bor... ”. OʻzAS 14-may № 20.

Yohann Volfgang Gyotening “ Hikmatlar xazinasi ” nomli kitobining ahamiyati haqida soʻz boradi. Asar tarjimalari haqida. Kitobning oʻtgan asrdagi tarjimalarining muvaffaqqayitsizlikka uchraganligi. Mirzaali Akbarovning Gyote ijodini oʻrganishi. Uning “ Hayot qoidalari va xulosalari ” nomli toʻplamini oʻzbek tiliga mohirona tarzda tarjima qilgan. Gyotening toʻplamdagi tarjimonlarga bergan taʼrifi berilgan.

44. Rustamjon Tojiboyev. “ “Uch xarobotiy ” kimlar edi ? ”. OʻzAS 21-may № 21.

Zokirjon Xolmuhammad oʻgʻli Furqatning “ Uch xarobotiy ” musaddasi adabiyotshunoslar eʼtiborini jalb qilib kelmoqda. Shayhzodaning ushbu musaddas haqidagi fikrlari. Koʻplab ijodkorlar tomonidan qilingan talqini. Bu musaddas Nisbatiy, Zavqiy va Furqatlarning ijodiy hamkorlik mevasi ekanligi. Musaddasning lirik qahramonlari.

45. Qodirjon Nosirov. “ Shekspir sonet yozmaganmi ? ”. OʻzAS 21-may № 21.

Sonet soʻzi haqida tushuncha. Oʻzbek adabiyotida sonetning rivojlanishi. Sonetda shaklning birlamchi ekanligi. Sonet va gʻazal oʻrtasidagi oʻxshashliklar. Shekspir ijodida sonetning yangi, sonetdan farq qiluvchi varianti uchrashligi. Abdulla Sherning sonetni talqin qilishdagi xatolari.

46. Akbarali Sabirdinov. “Timsollar silsilasi”. O’zAS 28-may № 22.

Mirtemir ijodiyoti. Mirtemir she’riyatining samimiyati, dilkash tuyg’ularga boyligi bilan jozibador ekanligi. Shoir she’riyatida badiiy so’zlardan mohirona foydalanganligi. Mavzular ko’lami va ularning rang – barangligi. Kam iste’moldagi so’zlarni ijod olamiga olib kirganligi. Uning she’rlaridagi lirik qahramon yurtning tanti o’g’lonidir. She’riyati tasvir ko’laminin kengligi, aniqligi, timsollarining o’ziga xosligi bilan boshqa ijodkorlarning she’rlaridan ajralib turishligi haqida fikr yuritiladi.

47. Jo’ra Hudoyberdiyev. “”Uloq” so’zining ma’nosi”. O’zAS 28- may № 22.

“Uloq” so’zining etimologiyasi haqida. Shavkat Rahmatullayevning shu so’z haqidagi qarashlari keltirilgan. Uloq so’zining ham echkinning bolasi, ham ko’pkari ma’nosida ishlatilishi. Muallifning bu so’zlar orasidagi o’xshashliklar va farqlarni tadqiq etganligi.

48. Mahkam Mahmudov, Hamidulla Boltaboyev. “Barakali umr”. O’zAS 4- iyun. № 23.

She’riyat poetikasini chuqur o’rgangan olim – Vahob Rahmonov faoliyati. Uning ba’zi ijodkorlarning ayrim ishlariga nisbatan bergan tanqidiy fikrlari. “She’r san’atlari” nomli kitobi haqida. Ushbu kitobda berilgan she’riy san’atlar haqida. Vahob Rahmonovning tanqidchilikda tutgan o’rni va qo’shgan hissalar.

49. Yo’ldosh Solijonov. “Qadri baland san’atkor”. O’zAS 11-iyun № 24.

Said Ahmad ijodi haqida so’z yuritiladi. Said Ahmadning hozirgi o’zbek adabiyoti rivojlanishida xizmatlari katta. Uning “Ufq”, “Qorako’z majnun”, “Zilzila”, “Sarob”, “Kiprikda qolgan tong” kabi asarlari kitobxonlar tomonidan sevib o’qib kelinmoqda. Uning hikoyalarida insonning insonga har doim mehr-oqibatli, muruvvatli bo’lishi haqida so’z yuritiladi. “Kiprikda qolgan tong” asari – biografik harakterdagi asarlar majmuasi.

50. Nafas Shodmonov. ““Armug’on”ning qiymati shumi?”. O’zAS 11-iyun № 24.

“Ogahiyga armug’on” kitobi haqida. Kitob maqolalaridagi ko’zga tashlanuvchi xatolar. Mundarijadagi kamchiliklar. Uchinchi maqolaning boshqalariga nisbatan ma’lumotlarning boyligi, puxtaligi bilan ajralib turishligi.

51. Gulnoza Odilova. “Aniqlik nimaga bog’liq”. O’zAS 18 – iyun № 25.

Tarjimachilik xususida. She'riy va badiiy tarjimada aniqlik qanday omillar asosida yuzaga keladi degan savolga tarjimashunoslarning qarashlari. N. Isamuhamedova tarjima qilgan “ Otello ” dramasi­dagi ayrim iboralarning o'zbekcha tarjimasi haqida qarashlar. Tarjimonlar haqidagi ayrim fikrlar. Prezidentimizning tarjimashunoslikka qaratayotgan e'tibor haqida.

52. Damir To'rayev. “ Maftunkor so'z talqinlari ”. O'zAS 18-iyun № 25.

Tohir Shermurodovning “ Jozib izhor izlab ” nomli kitobiga taqriz sifatida yozilgan maqola. Muallif istiqbol davri adabiyotining ijodkorlari haqida o'z fikrlarini bayon qiladi. U ba'zi ijodkorlar she'rlarini tahlil etadi. Ijod va ijodkorlik mas'uliyati haqida ham alohida maqola kiritadi. Ba'zi ijodkorlarning ijodiy faoliyati haqida so'z yuritish orqali kitobxon uchun ularning ijodi adabiy maktab hisoblanishini aytib o'tadi.

53. Ibrohim Haqqul. “ Tamalsiz talqin g'alatidir ”. O'zAS 25-iyun № 26.

A'zam Qozixovning “ Muloqot maqomi ” nomli maqolasida Navoiy ijodini yangicha talqin etganligi. Ushbu talqinga Ibrohim Haqqulning tanqidi. Navoiy so'fiy­i yoki mutasavvuf shoirmi degan savolga tanqidchilarimizning fikrlari.

54. Akmal Saidov. “ “Hayrat ul - abror”ning hayrati ”. O'zAS 25-iyun № 26.

Moskvadagi “ Художественная литература” nashriyotida “ Hayrat ul –abror ” kitobining ruscha nashri. Ushbu to'plamga Zahiriddin Muhammad Boburning ijodidan namunalar kiritilganligi. Bu kitobning ruscha nashr etilishi O'zbekiston va Rossiya xalqlari adabiy hayotida muhim voqea, barcha rusiyzabon adabiyot ixlosmandlari uchun munosib tuhfa, o'zaro do'stlik aloqalarini mustahkamlash yo'lidayana bir ezgu qadam hisoblanishligi.

55. Mahmud Sa'diy, Ahmad Otaboyev. “ Matnshunoslik davr talablari darajasidami ? ” O'zAS 2-iyul № 27.

Adabiyotshunos olimlar bilan bugungi matnshunoslik muammolariga doir bahs – munozara yoritilgan maqola. Suyima G'aniyevaning matnshunoslik oldida turgan muhim vazifalari haqidagi qarashlari. Nuriboy Jabborov, Qodirjon Ergash, Nusratulla Jumaxov, Nafas Shodmonov va Qo'ldosh Pardayevlarning matnshunoslikning shu kungacha erishgan yutuqlari va hozirgi kundagi muammolari xususida yuritgan baxs – munozarasi. Bu soha bo'yicha alohida yo'nalish ochish, malakali kadrlar tayyorlash doirasini yanada kengaytirish lozimligi yoritilishi.

56. Pirimqul Qodirov, To'liq Eshbek. “ Oqqan daryo yana oqadi ”. O'zAS 9-iyul № 28.

Abdug'afur Rasulovning adabiy-tanqidiy maqolalardan iborat "Betakror o'zlik" nomli kitobi tahlili. Kitobda Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asariga Janni Rodarining bergan bahosi berilgan. Ushbu kitob betakror iste'dodlarga bag'ishlangan. Maqolalarda Anvar Obidjon ijodiyotiga berilgan o'rin. Bolalar adabiyotini yanada rivojlantirish, tanqidchilik haqida ham so'z yuritilgan.

57. To'lapbergan Qaipberganov. "Burgut parvozi". O'zAS 16-iyul № 29.

Taniqli qoraqalpoq adibi O'rozboy Abdurahmonov ijodiga bir nazar. Uning "Bir muhabbat tarixi" nomli hikoyalar to'plami qoraqalpoq adabiyotida satirik nasrga asos bo'lgan. Hikoyalarida hayot haqiqatlarini ochib bergan. Uning "Orolim – dardim mening" nomli essesi YUNESKOning oltin medaliga sazovor bo'lgan. Uning tarjimashunoslikda erishgan yutuqlari behisobdir.

58. Yo'ldosh Solijonov. "Ruh bulbuli navolari". O'zAS 16-iyul № 29.

Farid Usmonning "Ruh bulbuli" nomli majmuasi haqida. Majmuadagi mavzular ko'lamining kengligi, g'azallarning oshiqona harakterda ekanligi har bir kitobxonning e'tiborini tortadi. Majmuada muallif she'riy janrlardan mohirona foydalangan. Ijodiyotida uchrab turuvchi ayrim xato va kamchiliklar, ularni to'g'rilashi lozimligi aytib o'tilgan.

59. Qudratulla Omonov. "O'lmas dostonning Hirot nusxasi". O'zAS 23-iyul № 30.

"Qutadg'u bilig" dostonining 940 yilligiga bag'ishlangan maqola. Doston qo'lyozmalari haqida qisqacha ma'lumot. Qo'lyozmalar ustida olib borilayotgan tadqiqotlar ko'lamini. Ularning bir-biridan farqli tomonlari. Hirot nusxasida boshqa qo'lyozmalarga qaraganda ayrim baytlari to'g'ri yozilganligi, ulardan farqi nomlarning noo'xshashligi hisoblanishi.

60. Vahob Rahmonov. "Matn haqiqati". O'zAS 30-iyul № 31.

Avvalgi matnshunoslikka oid maqolalar yuzasidan fikrlar. Yusuf Tursunovning "“Istamak”mi yoki “estramak”?" sarlavhali maqolasi tahlili. Uning "Layli va Majnun"ni qayta nashr ettirgani va unga ayrim tuzatishlar kiritgani. Ayrim baytlar tahlili. Matn haqiqatini tiklash uchun bayt mazmunini bir tomondan emas, hae tomonlama kuzatish zarurligi aytib o'tilgan.

61. Saydi Umirov, Boybo'ta Do'stqorayev. "Arzigulik hodisa". O'zAS 30-iyul № 31.

Shavkat Karimovning “ Nemis adabiyoti tarixi ” nomli kitobi xususida. Ushbu kitob orqali nemis ijodkorlari hayoti va ijodi keng yoritiladi. Bu orqali nemis adabiyoti tarixidan yuzakiroq tasavvurga ega bo’lgan o’quvchilar endilikda bir qadar to’liq va izchil bilimga ega bo’ladilar. Eng muhimi, nemis adabiyoti tarixi haqida olimining birinchi bo’lib darslik yaratishi katta e’tirofga arzigulik hodisadir.

62. Abdug’ofur Rasulov. “ Tug’donavor matn ”. O’zAS 6-avgust № 32.

Erkin A’zamning ijodiyotida “ tug’dona ” so’zining keng ko’lamda qo’llashi. U yaratgan qahramonlar mohiyati haqida qarashlar. Qahramonlarni tanlashdagi mahorati. Hikoyalarning rang – barangligi va ularning hammaga birdek ma’qul tushishi.

63. Yanglish Egamova. “ Sof muhabbat tarannumi ”. O’zAS 6-avgust № 32.

Gyotening “ G’arbu Sharq devoni ” dagi mavzular rang – barangligi. Devonda tasavvufiy qarashlarning aks etishi. Ayrim imloviy xatolarni ko’zga tashlanishi. Kitobdagi ayrim parchalarni kitobxon tushunishi uchun qilingan tahlilini, tarjimini adabiyotimizning ulkan yutuqlaridan biri sanalishini muallif yoritib o’tgan.

64. Ibrohim Haqqul. “ Mohiyatga to’lib, ruhoniyatga oshiq ”. O’zAS 13-avgust № 33.

Navoiyning ijodida bir so’zning ko’plab ma’nolarda qo’llashdagi mahorati. Ayrim namunalar. “ G’urbat ” so’zini turli xil ma’nolarda qo’llashi. Uning mashhur “ G’urbatda g’arib ” nomli ruboiysi tahlili. A. Hayitmetovanning “ Buyuk shoirning yigitlik manzumalari ” nomli maqolasidagi Navoiy haqidagi fikrlari.

65. Qosimjon Sodiqov, Qudratulla Omonov. “ Ilmiy-tanqidiy matn yaratish zamon talabi ”. O’zAS 20-avgust № 34.

Matnshunoslik taraqqiy etish davri. Bitiklar haqida. Matnshunoslik tarixida temuriylar davri katta bir yuksalish bosqichi sanaladi. Matnshunoslikning kamchiliklari. Ilmiy – tanqidiy matn tuzishdagi mahorat. Ilmiy matnni tayyorlashda eng to’g’ri yo’l asarning turli qo’lyozmalariga asoslanib, uning yig’ma-qiyosiy matnini yaratish. Hozirda matnshunoslikka qaratilayotgan e’tiborning qamrovi, yoshlarni bu ishga jalb etilishi.

66. Nusratullo Jumaxo’ja. “ Rasamad ”. O’zAS 20-avgust № 34.

“Rasamad” soʻzining maʼnosi, uning etimologiyasi haqida qarashlar. Bu soʻz kundalik hayotda kam qoʻllaniladi, kelishiklar bilan ham qoʻllanishi izohli berilgan. Bu soʻz oʻz oʻrnida ishlatilsa, faoliyat doirasi kengayishi, faol qoʻllanadigan soʻzga aylanishi mumkin.

67. Noʻmon Rahimjonov. “Tugʻyonli qalb toʻlqinlari”. OʻzAS 27-avgust № 35.

Yoshlar sheʼriyatiga qaratilayotgan eʼtibor. “Yoshlik kitobi – 2008”da 43 nafar yosh shoirlar izlanishlaridan namunalar berilgan. Ularning sheʼriyati istiqlol davri sheʼriyatining magʻzi toʻliqligini taʼminlashda muhim oʻrin tutadi. Yoshlar sheʼriyati kechinmalar, mushohadalar yorqin tasvirlanishi, badiiy salohiyati bilan eʼtiborli. Yoshlar sheʼriyatiga xos yetakchi xususiyatlar bu – yongan yurak yoʻlqinlari, tugʻyonli qalb toʻlqinlaridir. Ular sheʼriyatida poetik obrazlar xilma-xil ravishda tasvirlanadi.

68. Mixli Safarov. “Yalangʻosh qalam dehqoni”. OʻzAS 27-avgust № 35.

Mirtemir ijodining belgilovchi ohangi joʻshqinlik ekanligi. Sochma sheʼr shaklida ijod qilishi. Shoir ijodida oʻziga xos shoirona timsollarning qoʻllanilishi. Sheʼriyatida xalqona hazil, quvlik, samimiy tabassum alohida koʻzga tashlanishi. Abdulla Oripovning Mirtemirga bergan taʼrifi. Tarjimashunoslikda tutgan oʻrni va bu sohadagi mahorati.

69. Abdusattor Jumanazar. ““Mabdoi nur” va kalavanning ikki uchi”. 1. Sohibzodaning bebaho turi. OʻzAS 3-sentabr № 36.

Mashrab “Mabdoi nur” asari muammosiga oid maqola. “Mabdoi nur”ning muallifi xususidagi fikrlar bayon etilgan. Ikki Mashrab haqidagi Fitrat, Gʻafur Gʻulom, V.A. Vyatkinlarning qarashlari. Bu xususida Abdulla Nosirovning olib borgan tadqiqotlari nihoyasiga yetmay qolgan. 1990-2010- yillarda mashrabshunoslikda yangi davr boʻldi. Roʻziy Mashrab va Bobarahim Mashrab. Roʻziy Mashrab ijodi. Sohibzoda haqida maʼlumotlar. Sohibzodaning bebaho turi – Roʻziy Mashrab ekanligi.

70. Abdusattor Jumanazar. ““Mabdoi nur” va kalavanning ikki uchi”.

2. Mashrabi Soniy talab bilsang, mani oldimga kel. OʻzAS 17 – sentabr № 38.

Roʻziy Mashrabning “Oldimga kel” nomli muxammasi. Muxammasda muallifning tarixiy shaxsiyati va ijodi yoritilgan, tasavvufiy iboralardan mohirona foydalangan. Ushbu muxammasda “Mavlono Rumiy” soʻzi keltirib oʻtilgan. Rumiy esa unga Mashrab nomini bergan piri hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda “Mabdoi nur” asarini Roʻziy Mashrabniki degan

qarashlar ham mavjud. Lekin bu muammo hali – hanuz davom etib kelayotgan bahs mavzusi hisoblanadi.

71. Ergash Umarov. “ Maoniy kasbida kamol topgan olim ”. O’zAS 17– sentabr № 38.

Qayum Karimov “ Qutadg’u bilig ” asariga ikkinchi hayot bag’ishlagan olim hisoblanadi. Matnga tayyorlayotib ayrim baytlar xususida muammolarga duch keladi va ularni oqilona yecha biladi. U muqaddima va mundarija ikki inson tomonidan bitilganligini aniqlab, bu masalaga oydinlik kiritadi. Ma’nosi noma’lum so’zlar lug’atini tuzib chiqdi. Bu ishlari orqali u adabiyotshunoslikda nomini adabiyashtirdi.

72. Ulug’bek Hamdam. “ Davr talabi va yangi mezonlar ”. O’zAS 24 – sentabr № 39.

Yangi zamonaviy o’zbek adabiyotshunosligini rivojlantirish – davr talabi. Yangi o’zbek adabiyotshunosligi qanday bo’lishi to’g’risidagi olimlarning turli-tuman qarashlari. Bu talabni bajarish hozirgacha davom etib kelayotgan muammodir. O’zbek adabiyotshunosligini G’arb adabiyotshunosligiga bog’lash kerakmi degan savol yuzasidan olib borilgan bahs-munozaralar. Adabiyotshunoslikning muvaffaqiyatga erishishidagi ijodkorlarning ahamiyati.

73. Ahmad Otaboyev. “ “Uliss ” o’zbek tilida ”. O’zAS 24-sentabr № 39.

Jeyms Joysning ijodiy faoliyati. Uni Eyfel minorasiga tenglashtirishgani. “ Uliss sarguzashtlari ” romanining o’zbek tilidagi tarjimasi tahlili. Romanga kiritilgan G’arb adabiyotining jamiki uslublari va usullari. Tarjimon Ibrohim G’afurovning bu asar haqidagi fikrlari.

74. O’ktamoy. “ Tarjima – dunyoga yo’l ”. O’zAS № 39.

Shoir va tarjimon “ Jahon adabiyoti ” jurnali bosh muharriri o’rinbosari Mirpo’lat Mirzo bilan muloqot jarayoni yoritilgan. Tarjimonchilikning adabiyotimizdagi o’rni haqida uning fikrlari. Uning tarjimonlik faoliyatidagi mahorati. Tarjimon oldiga qo’yiladigan talablar. O’zbek tarjimachilik maktabi haqidagi mulohazalar.

75. Ibrohim Donish. “ Jozib talqinlar ”. O’zAS 1-oktabr № 40.

Komil Sindorovning “ Toshkenti azim derlar ”, “ Ayol borki...” nomli to’plamlari xususida. She’rlaridagi asosiy ko’zga tashlanuvchi tushunchalar, mavzular ko’lamining kengligi. “ Vatan madhi ” nomli she’ridagi yetakchi mavzular. Shoirning har ikki kitobini o’qib, yurtimizning betakror manzaralari, Vatanimiz boyligi va go’zalligi, shahar va qishloqlarimizning

mustaqilligimizdan keyin chiroy ochayotganligi, xalqimizning qo'lga kiritayotgan yutuqlari qalamga olinganligiga guvoh bo'lamiz.

76. Ibrohim G'afurov. “E'tiqod hosilasi”. O'zAS 8-oktabr № 41.

Bu maqola “Jahon adiblari adabiyoti haqida” nomli to'plamga Ibrohim G'afurov tomonidan so'ngso'z sifatida yozilgan. O. Sharafiddinov haqidagi fikrlari. O. Sharaiddinovning adabiy-tanqidiy, publisistik ijodi tarjimachilik faoliyati bilan chambarchas bog'langan. Uning tarjimachilikda tutgan o'rni. Kitobga bildirgan munosabati.

77. Anisa Mamatova. “Dil shahrining ertaklari”. O'zAS 8-oktabr № 41.

Halima Ahmedovanning “Umid soyasi” to'plami haqida. She'riyati so'zlardan foydalanishdagi badiiy mahorati, obrazlarning rang - barangligi bilan e'tiborni tortadi. She'rlari diltortar, falsafiy mushohadaga boy. To'plamning nomlanishi haqida fikrlar. Umid – inson hayoti uchun zaruriy shartlaridan biridir.

78. Mahmud Toir. “Vatan madhi bo'ldi satri ham”. O'zAS 15-oktabr № 42.

Mirtemir ijodiy faoliyatining so'nggi davrlari yoritilgan. Ozod Sharafiddinovning Mirtemir poeziyasiga bergan nisbati. She'riyatida xalqchilikning alohida e'tirof etilishi. Uning she'rlarini qo'shiqqa aylanishi. Mirtemir Vatan madhini kuylovchi shoirlardan, umrining so'nggi yillarida ham Vatanni kuyladi, so'nggi satri ham Vatan madhi bo'ldi. U qalbidagi bor ezgulikni el-u yurtga baxshida etgan shoir.

79. Qozoqboy Yo'ldosh. “Oydin tuyg'ularning jozib talqini”. O'zAS 15-oktabr № 42.

Oydinnisoning “Qaytish” nomli to'plamiga munosabat. Shoir she'rlarida misra so'nggidagi qofiyaning musiqiyligini ta'minlashdan ko'ra, ruhiyatni moddiylashtirishga urinish xususiyati yetakchilik qiladi. She'rlarida o'ta nozik va inja tuyg'ularni kuylashdagi mahorati yuksak.

80. O'razboy Abdurahmonov. “Tansiq mevadek totli asar”. O'zAS 15-oktabr № 42.

Pirmat Shermuhammedovning “Yaxshilar bahori yohud Mahmud Zamaxshariy dahosi” nomli ilmiy-ma'rifiy romani haqida. Mahmud Zamaxshariy hayoti haqida ma'lumotlar bayoni. Uning ilmga bo'lgan mehri, unga intilishlari yuksakligi va ilm – fanga qo'shgan hissalar haqida kitobxonlarga yetarli ma'lumotlar berilgani aytib o'tilgan.

81. Damin To'rayev. " Fikr tog'laridan dur qazib ". O'zAS 22-oktabr № 43.

Jumaniyoz Jabborov – umuminsoniy, ijtimoiy, ahloqiy – ma'naviy muammolarni ijodi orqali dadil ko'tarib chiqqan ijodkor hisoblanadi. She'riyatida Vatanga muhabbat, do'stga sadoqat, o'z xalqiga mehr tuyg'ulari mustahkam o'rin olgan. Ijodida yetakchilik qiluvchi uslub. Romantik uslub orqali hayotiy obrazlarni yaratishdagi mahorati tahsinga loyiq. " Quyosh yurti ", " Hayolimda o'zing ", " Ko'nglim go'zallari ", " Ajab dunyo – sevgi dunyosi " kabi to'planlarida yetakchilik qilgan mavzular haqida. Jumaniyoz Jabborov hozirgi o'zbek she'riyatining g'azal janriga katta hissa qo'shib kelayotgan shoirlar sirasiga kirishligi maqolada aniq va ravshan yoritib o'tilgan.

82. Sherali Turdiyev. " Adabiyotga baxshida umr ". O'zAS 22-oktabr № 43.

Muhammadjon Muxtorov – Vasfiy faoliyati haqidagi maqola. Shoir va tarjimon sifatida adabiyotga qo'shgan hissalarini xususida. Tarjimashunoslikda tutgan o'rni. O'z tarjimalari orqali o'zbek adabiyotshunosligida yuksak o'rinlarga erishgani, umrini adabiyotga baxshida etgani haqida mulohaza qilinadi. Maqola so'nggida Vasfiyning qizi Halimaxon Muxtorova bilan suhbat berilgan.

83. Muhammadjon Xolbekov. " Jahon adabiyotida umuminsoniy tamoyillar ". O'zAS 29-oktabr № 44.

" Jahon adabiyoti " tushunchasining keng yoyilishi . Jahon adabiyotidan umuminsoniy adabiyotga o'tish . Umuminsoniy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari. Amin Maalifning " Levant darvozasi " romanidagi umuminsoniy tamoyillarning berilishi. Fransuz yozuvchisi Le Klezioning " Sarson yulduz ", ingliz yozuvchisi Kadzuo Isuguroning " Biz yetim bo'lganimizda " nomli romanlarida umuminsoniy birdamlikning asarning badiiy to'qimasiga singdirilganligi.

84. Adhambek Alimbekov. " To'kiladi ko'kdan dur". O'zAS 29-oktabr № 44.

O'tkir Rahmatning samarali ijodi. " Yurakdagi qush " kitobidagi mavzularning rang – barangligi. Kitobda tabiat tasviriga bag'ishlangan minglab she'larni uchratish mumkinligi, tashbeh san'atidan mohirona foydalanganligi, o'ziga xos uslubdan foydalanishi haqida so'z yuritiladi. Ayrim she'rlarining tahlili berilgan. Shoir tabiat tasviri bilan insoniy tuyg'ularni uyg'unlashtirish mahorati tufayli she'riyat muxlislari qalbidan joy egallab ulgurgan.

85. G'ulom Karimiy. " Mutaxassis mas'uliyati ". O'zAS 29-oktabr № 44.

O'zbek matnshunosligining g'arb matnshunosligidan farqi. Matnlar

tushunarli bo'lishi uchun mutaxassis mas'uliyati katta ro'l o'ynaydi. Alisher Navoiyning “ Nasoyim ul muhabbat ” asarining matnidagi xatolar, bu xatolar tufayli matn ma'nosining tushunarsiz xolga kelishi, asardagi uchrovchi xatolardan namunalar keltirilgan. Matn tarjimasida matnshunoslikka katta mas'uliyat bilan yondashish kerakligi uqtirilgan.

86. Ismoil Bekjon. “ Avval o'zinga ur...”. Ulug'bek xaritasi bilan bog'liq asossiz davolar xususida. O'zAS 5-noyabr № 45.

Ayrim “ o'g'ri ” ijodkorlarimiz borki, o'z hamkasblarining zahmat chekib, izlanishlar orqali aniqlagan yangi ma'lumotlarini o'zlashtirib olishdan botinmaydilar. Ushbu maqolada shu xususida so'z yuritiladi. Ismoil Bekjonov ko'plab izlanishlar bilan erishgan Mutribiyning “ Tazkirat ush – shuaro ” asaridagi Ulug'bek rasadxonasi xaritasi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni ayrim shunday olimlar o'zlashtirib olgan. Holbuki, undan uyalmaganlar ham. Bular sirasiga B. Ma'rufiy ham kiradi. U ushbu ma'lumotlarga ozgina o'z fikrlaridan qo'shib Samarqand info.uz saytiga o'z nomidan joylashtirgan. Yana Nodira Umarova ham shunday ish qilishga iymannagan. Vaholanki, bu ma'lumotlar I. Bekjonning maqolasi bilan bir xil edi. Muallif shunday ijodkorlarimiz oramizda bor bo'lishiga yo'l qo'ymaslik haqida aytib o'tadi.

87. Ruhsora To'laboyeva. “ ” Devon ” talqinlari ”. O'zAS 5-noyabr № 45.

Juma Xudoyberdiyevning “ Mahmud Qoshg'ariy va uning “ Devonu lug'atut-turk ” asarining o'rganilishi ” nomli risolasida devonning talqini. Ayrim yangi ma'lumotlar berilganligi bois ushbu kitob adabiyotshunoslar e'tiborini o'ziga jalb qilgan. Risolada “ Devonu lug'atut - turk ” ning tarjimalari, uning o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar haqida so'z yuritiladi.

88. Hasan Quadratullayev, Dildora Hoshimova. “ Yoshlar dadil, o'ziga ishongan bo'lishsa... ”. O'zAS 12-noyabr № 46.

“ Tarixi Rashidiy ”da yoshlar tarbiyasi va ustoz-shogird an'analari tajribasi haqida aytib o'tilgan. Muhammad Haydar va Sulton Saidxon munosabati, ular o'rtasidagi ustoz-shogird an'analari haqida bayon etiladi. Sulton Saidxon o'z shogirdi Muhammad Haydarni tarbiyalashda o'zgacha uslubdan foydalangani, faqatgina yigirma besh yoshga yetgandagina harakatlaridan mamnun bo'lganligi, unga notiqlik san'atidan ham saboq berganligi to'g'risida ham ma'lumotlar berib o'tilgan. Bu asarni o'qish orqali esa bugungi yoshlar tarbiyasi uchun ibrat bo'la oladigan, tarbiya uchun qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Muhimi, ustozlik maqomi yuksak ekaniga, har jihatdan munosib shogirdlar tarbiyalash ustozning yutug'i ekaniga guvoh bo'lamiz.

89. No'mon Rahimjonov. “ Ahloq va ideal – bosh mezon ”.Yohud toshi yengil kitoblar ko'paymoqda. O'zAS 12-noyabr № 46.

Bugungi adabiy jarayon haqida. Oldingi ustoz ijodkorlar ishlari hozirgilari uchun tamal toshi hisoblanadi. Lekin hozirda ayrim ijodkorlar ko'payib ketganki, ularning qo'shtirnoq ichidagi asar deb nomlasagina bo'ladigan asarlari kitobxon talabiga javob bera olmayapti. Bu esa hozirda kitoblarga nisbatan talabning kamayib borishiga sabab bo'lmoqda. Havaskor yozuvchi bilan haqiqiy yozuvchini farqlashni uqtirish maqolaning bosh maqsadi hisoblanadi.

90. Naim Karimov. “ Nekbin ruh, hayotsevar g'oya ”. O'zAS 19-noyabr № 47.

She'riyatning bosh qahramoni – inson. Usmon Azim she'riyati. Uning she'riyatida poetik fikr, tuyg'u va kechinmalar nafis ifodalanishi, sevgi va muhabbat mavzusi, badiiy so'zlardan foydalanishdagi mahorati. Shoirning istiora va boshqa tasviriy vositalardan samarali foydalanganligi. Uning sevimli obrazi – yomg'ir. Bu obraz orqali shoir she'rlarida armonning ranglari va ohanglarini qanchalik turfa turfa shakllarda bo'lmasin, bu tasvir zaminida nekbin ruh, hayotsevarlik g'oyasi yotganligini ochib bergan.

91. Otabek Jo'rayev.“ Shoir bo'lib shuhrat topganlar ”. O'zAS 19-noyabr № 47.

Uvaysiy, Muqimiy, Haziniy va Charxiy ijodi haqida. Uvaysiy – ilohiy ma'rifatni, tarixiy haqiqatni, pok e'tiqodni, oily muhabbatni tarannum etgan shoir. Uvaysiy va Muqimiy ijodidagi o'xshashliklar. Muqimiy mumtoz adabiyotidagi mahoratli lirik va o'tkir hajvchi ijodkor. Haziniy haqida qisqacha ma'lumot. Unga o'z davrida zamondosh ijodkorlar tomonidan berilgan ta'rif xususida. Uning ijodida inson va insoniylik ulug'lanishi, kishining baxti Haqni tanishda ekanligi. Charxiy o'z davrida mahoratli xattot sifatida tanilgan ijodkor.

92. Safo Matjon, Maqsud Qurbonniyozov. “ Yangilanish jarayonlari ”. O'zAS 19-noyabr № 47.

Adabiy tanqid metodik asoslarining yangilanish jarayonlari haqida so'z yuritiladi. Qurdosh Qahramonovning “ Adabiy tanqid : yangilanish jarayonlari ” nomli monografiyasining mazmuni. Ushbu monografiyada adabiy tanqid metodologiyasidagi yangilanishlar haqida aytib o'tilgan. Muallif istiqlol davri o'zbek adabiy tanqidchiligida izchil kechayotgan yangilanish jarayonlarni , xususan , ijodiy metod va tamoyillarni bir butun hodisa sifatida o'rgangan, tahlil metodini yangilanishga zarurat borligini sanab o'tadi.

93. Umarali Normatov. “ Bedorlikda o'tgan umr ”. O'zAS 26-noyabr № 48.

El-yurt ardog'idagi suyuqli adib Said Ahmadning ijodiy faoliyati yoritilgan maqola. Uning “ Ufq ” trilogiyasi va “ Kelinlar qo'zg'oloni ” asarlarining vujudga kelishi. Hammani lol qoldiradigan jihati – bedorlik xislatidir. Uning “ Borsa kelmas darvozasi”, “Sarob” hikoyalarning yaratilish jarayonidagi ruhiy kechinmalari, og'ir iztiroblar. Istiqlool munosabati bilan uning ijodini o'rganish avvalgi yillardan ko'ra bir qadar rivojlandi.

94. Abduzohur Abduazizov. “ Matn tilshunosligi va tarjimashunoslik ”. O'zAS 26-noyabr № 48.

Matn tahliliga oid nazariy qarashlar. Matn tilshunosligi ilmiy jihatdan boshqa tilshunosliklardan farq qilishi. Matn tilshunosligi va tarjimashunoslik o'zaro uzviydir. Basil Hatimning “ Tarjima ”, “ Tarjima va bu sohada ilmiy tadqiqot olib borishga o'rgatish ” nomli asarlarida matn tarjimasi haqida ham ma'lumotlar berilgan. Matn tarjimasidagi yutuqlar chet tildagi asarlarni huddi o'zbek tilida yozilgandek tuyulishiga zamin yaratilgan, uni rivojlantirishga keng yo'l ochib berilgan.

95. Umid Yoqubov. “ Xalqimiz tarixining shoh bayti ”. O'zAS 3-dekabr № 49.

O'zFA Til va adabiyot institutining folklorshunoslik bo'limi katta ilmiy hodimi, filologiya fanlari nomzodi Shomirza Turdimov bilan muallifning suhbat berilgan. Suhbat mavzusi “ Alpomish ” dostonining ma'naviy meros sifatida o'rganilishi. Ushbu doston millatimiz o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'i sifatida xalqimizning bebaho ma'naviy durdonalaridan biridir. Alpomish obrazi esa xalqimizning bunyodkor inson haqidagi tasavvurlarini o'zida mujassam etgan ideal qahramon. Xalqimiz bor ekan Alpomish siymosi ham barhayotdir. Suhbat davomida dostonidagi mavzular ko'lamini, qahramonlarni yaratishdagi mahorat, uning variantlari haqida ham fikr almashinildi.

96. Abdug'ofur Rasulov. “ Konsepsiya zarurati ”. O'zAS 3-dekabr № 49.

San'atkorning ijodida ong oqimining o'rni. Adabiyotshunoslikdagi sinergetika metodi haqida tushuncha. Metodologik tayanch asos sifatida foydalanilgan adabiyotlar. Amir Temur “ Temur tuzuklari ” da insonparvarlik g'oyalarini ilgari surgan. XX – XXI asr o'zbek adabiyotshunosligida metodologik muammolarni yoritgan bir qator ijodkorlar haqida ham ilmiy dissertatsiyalar tayyorlandi. Afsuski, dissertatsiya yozayotganlar ilmiy konsepsiyani aniq belgilash, uni izchil davom ettirishga qiynalib kelmoqdalar. Ilmiy konsepsiya – yosh tadqiqotchilarning mayog'idir.

97. Qosimjon Sodiqov. “ Buyuk ma’naviy meros. Mangu qamaru ”. O’zAS

10-dekabr № 50.

Qadimgi turkiy adabiyotning ulug’ va mo’tabar obidasi “ Qutadg’u bilig ”dir. Bu asar haqidagi olimlar qarashlari. “ Qutadg’u bilig ” asari o’rta asrlarda turk dunyosidagina emas, butun sharq adabiyotida dovrug’ qozongan. U “Shohnomayi turkiy ” deb ham e’tirof etilgan. Asarning 3 nusxasi bir – biriga to’la mos kelmasligi, asarda siyosat, davlat qonunlarini yuqori tutish kerakligi haqida ma’lumotlar berilgan. Eng asosiysi, Yusuf Xos Hojib kishilik ma’naviyati tarixida birinchilardan bo’lib, “ komil inson ” tushunchasini ko’tarib chiqdi. Asardagi til va nutq , nutqning yozma va og’zaki shakllari to’g’risidagi qarashlar tilshunoslikning doimiy e’tiborida turadi.

98. Boqijon To’xliyev. “ Ma’rifatga chorlovchi kitob ”. O’zAS 10-dekabr № 50.

“Qutadg’u bilig ” dostonining turkiy xalqlar og’zaki ijodi an’analaridan puxta oziqlangan dastlabki yirik yozma adabiyot namunasidir. Asar mavzu va g’oyasining ko’lami keng . Asar orqali muallif insonni ezgulikka, ma’rifatga chorlaydi. Asar ma’rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi, asar baytlarini o’qib – o’rganish, ulardan bahramand bo’lish esa yoshlarning yuksak ma’naviyatli shaxslar bo’lib kamol topishiga munosib xissa qo’sha olishi, undagi ezgu g’oyalar, yuksak insoniy fazilatlar targ’ibi va tarannumi ko’ngillarga zavq bag’ishlaydi.

99.Qudratulla Omonov. “ Elning quti – “ Qutadg’u bilig ” ”. O’zAS 10-dekabr № 50.

Qoraxoniylar davrida madaniy hayotning yuksalishi. Yusuf Xos Hojib – o’sha zamonning tuzukchisi va mafkurachisi. “ Qutadg’u bilig ” dostoni esa qoraxoniylar davrining bosh qomusi ekanligi. Asarning nomlanishi haqidagi qarashlar. “ Qut ” so’zining ma’nolari. Nizomul Mulkning “ Siyosatnoma ”, Amir Kaykovusning o’g’li Gilonshoh uchun yozgan “Qobusnoma ” asarlarining “Qutadg’u bilig”ga o’xshash jihatlari. Asar turkiy xalqlar dunyoqarashi va davlat boshqaruvining azaliy an’anolari bilan islom mafkurasiga ters bo’lmagan davlat boshqaruvi hamda qonunchilik haqida ma’lumotlar beradi.

100. Yo’ldosh Solijonov. “ Milliylik va badiiylik talablari ”. O’zAS 17-dekabr № 51.

Ulug’bek Hamdam va N. Rahimjonovning adabiyotshunoslik ilmi haqida qarashlari. Adabiyotshunoslik ilmining nazariy mezonlarini yangilash va aniqlashda milliylik va badiiylik talablariga qat’iy amal qilish lozimligi. Milliylik va badiiylik aniq ifodalanishi uchun ,avvalo, yozuvchining “men”i to’la shakllangan bo’lishi kerakligi. H. Temirovning ishqiy mojarolarga bag’ishlangan asarlari ushbu talablarga javob bera olmasligi. Badiiy asar poydevorining

mustahkamligi milliylik va badiiylik mezonlarining o'zaro uyg'unlashuviga bog'liqligi to'g'risida bir qator fikr va mulohazalar keltirilgan.

101. Qozoqboy Yo'ldosh. “ Kulgiga esh taqdirlar ”. O'zAS 17-dekabr № 51.

Ahmad A'zamning “ O'zi uylanmagan sovchi ” nomli kinoromani haqida. Romanda insonlarning insoniy taqdirlar chizig'i bayon etilgan, turli shaxslarning taqdir yo'llari mahorat bilan bir nuqtaga birlashtirilgan. Asardagi personajlarning o'ziga xosligi va rang – barangligi. Romanda hayotning murakkabligi inson umrining adoqsiz sinovlar bilan o'tishi, yoshlikning “oltin davri” sanalishi “betashvish” talabalik yillari misolida ishonarli aks etadi. Asarda kulgi yetakchi o'rinda turadi.

102. Abdusattor Jumanazar. “ Bulbul tilsimi ”. O'zAS 24-dekabr № 52.

Mulla Bozor Oxund haqidagi ma'lumotlar. N.S. Likoshin birinchi bo'lib u haqda ma'lumotlar to'playdi. Ko'plab olimlarning Mulla Bozor Oxund haqidagi baxslari. Uning yassaviya tariqati vakili hisoblanishi, u to'g'risidagi yangi ma'lumotlar oydinlashgani. Mulla Bozor Oxundning ta'rix san'atidan ham mohirona foydalangani. Mashrabning u haqdagi yozgan g'azali.

103. Miraziz A'zam. “ Kuylar qo'shig'ini kuylaydi mag'rur ”. O'zAS № 52.

Abdujalil Xo'jamovning ijodiy faoliyati. Uning tarjimashunoslikdagi o'rni. She'rlarida o'z ichki kechinmalari va his-tuyg'ularini aks ettirishi. Yurtimizning aniq bir manzarasini ifodalab, qalbimizda yurtga mehr, e'tibor kabi tuyg'ularni yanada jo'shqinantiradigan ruhda yozilgan she'rlarining rang-barangligi. She'rlari orqali insonlar ko'ngliga yo'l topa olganligi.